



# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadirlar

N:6 (67171)  
2018-yil 5-fevral

www.tongyulduzi.uz

ISSN - 2010-6092

## 9-fevral - Alisher Navoiy tavallud topgan kun



BESH ASRKIM, NAZMIY SAROYNI,  
TITRATADI ZANJIRBAND BIR SHER.  
TEMUR TIGI YETMAGAN JOYNI,  
QALAM BILAN OLDI ALISHER.



*Biz Qarshi shahrida joylashgan  
Abdulla Orifov nomidagi ixtisoslashtirilgan  
maktab-internatining o'quvchilarimiz.*

6-bet

Nemis

*olimi Gyote asarlari to'liq to'plamining  
eng mashhur tadqiqotchisi Alfred Kurella  
Navoiy ijodiga yuksak baho berib, shunday iliq  
so'zlarni aytgan: «Ulug' Navoiyning dostonlari ruboiv  
va epigrammalarida tarannum topgan ozod ruhdan  
Gyote ilhomlangan va kerak bo'lsa, butun  
shodligini baxshida etgan bo'lur edi».*

## DUNYO TAN OLGAN

# ALLO MA

(Buyuk shoir  
haqidagi qimmatli  
va qiziqarli  
ma'lumotlar)



*Ulug' muta-fakkirning betakror  
iste'dodi, vaqtin kelib,  
jahonga tanilgan shoirga  
aylanishi bolaligidanoq ayon  
bo'lgan. Chunonchi, kichik  
Alisher olim-u fuzalolar  
davrasida o'tirib,  
ularning suhabatini  
tinglagan.*

3-4 yoshlarida o'sha davning mashhur shoiri Qosim Anvarning bir she'rini yod aytib, mehmonlarni hayratga solgan. Bo'lajak shoir 7-8 yoshlarida Sa'diy Sheroziyning «Guliston», Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» («Qush nutqi»)ni ishtiyoq bilan o'qidi. Ayniqsa, qushlar tilidan keltiligan hikoyatlar va ularning chuqur mazmuni Alisherning o'y-xayolini batamom egallab oladi.

15 yoshlaridayoq Navoi o'z zamonasining mashhur shoirlari diqqatini o'ziga tortgandi. Shu paytlarda u 100 ming misra she'r yod olgani manbalarda qayd etilgan.

Navoiyning mashhur asarlaridan biri «Lison ut-tayr» («Qush tili») sodda, ravon tilda yozilgani, ichida bolalarbop hikoyatlar ko'pligi bilan kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Undan olingan parchalar arab imlosi va turkiy tilda bitilgan. Hikoyatlar «Ustodi avval», «Muallimi soniy» kabi o'quv darsliklariga kiritilgani bejiz emas.

Alisher Navoiyning shoh asari «Xamsa» jahon adabiyotida munosib o'rning ega. Asarga kirgan «Sab'ayi Sayyor» dostoni asosida XVII asrda gruzin shoiri Nodar Sitsiashvili «Baramguriani» asarini yaratgan. U ulug' bobomiz yaratgan dostonni Nizomiy va Xisrov Dehlaviyarniki bilan qiyoslab o'rganib, Navoiy asari ularnikidan ustun ekanligini qayd etган.

Mashhur nemis shoiri va mutafakkiri Gyote ham «Sharq-u G'arb devoni»ni yozishda Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari, hikmatlari o'ziga ilhom bag'ishlaganini yozadi.

XVI asrning oxirlaridan XVII asr boshlarigacha Navoiy asarları italyan tilida 4 marta, nemis tilida 5 marta nashr qilingan. Bular orasida «Farhod va Shirin», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Mahbub ul-qulub»dan olingan parchalar muhim o'rinn tutadi.

Ulug' shoir yaratagan «Xazoyin ul-maoni»ga lirik turning 16 janridagi she'rleri, jumladan, 2600 g'azal, 210 qit'a, 1333 ruboiv va boshqalar kirgan.

Daho ijodkor 1490-yili o'ziga zamondosh shoirlar haqida Abdurahmon Jomiyining «Bahoriston», Davlatshoh Samrqandiyining «Tazkirat ush-shuar» asarlar shaklida «Majolis un-nafois» tazkirasini tuzishga kirishib, 1492-yilda tamomladi. Ushbu asarda o'zbek

hamda forsiy tillarda ijod qilgan 459 shoir (yuqorida qayd etilgan shoirlar tazkiralari qaraganda deyarli ikki barobar ko'p)ning hayoti va ijodi haqida noyob ma'lumotlar berigan. Bu «Yakka kishi tonomidan yozilib, ko'p odamlar to'g'risida ma'lumot berilgan ensiklopediya» deb Yevropa va AQSHda tan olinadi.

*Muhayyo G'OFUROVA,  
Andijon viloyati, Xo'jaobod  
tumanidagi 40-DIMIning ona tilli  
va adabiyot fani o'qituvchisi*

## «KAMOL ET KASBKIM...»

*Kamol et kasbkim, olam uyidin,  
Sanga farz o'limg'ay g'amnok chiqmak.  
Jahondin notamom o'tmak biyinif,  
Erur hammomdin noplak chiqmak.*

Kamol kasb etmoq degani – behad keng va teran tushuncha. Bu qit'ani o'qiganda, avvalo, mana shu to'g'rida fikr yuritish kerak. Mir Alisher Navoiy «Lison-ut tayr»da: «To'rt unsur, yetti ko'k va olita tomon – bular koinotning nodir va eng olyi asosini tashkil etadi. Koinotdagi barcha nar-salar ichida hammadan eng ulug'i Inson bo'lib, uning kamoloti oldida aql hayron qoladi», deydir. Insonning kamolot yo'lli mana shu haqiqat haqida chuqur o'ylashdan boshlanadi. Va u asta-sekin o'zligini izlaydi. O'zini tanigan olamni taniydi. Shu tariqa u «olam uyida» g'am va g'aflatda tutqun yashashdan ruhini qutqaradi. Hazrat Navoiy «Kamol et kasbkim» deya



da'vat qilganlarida, komillik uchun zarur juda ko'p xususiyatlarni nazarda tutganlar. Kishi o'zini xirs, ta'ma, nafs, g'aflat, nodonlik singari mayillardan poklamasa, u hech payt komil bo'lomaydi. Komillik uchun ulkan insoniy qalb, uni nurlantiruvchi so'nmasi ishq va keng qamroqli tafakkur zarur. Bularsiz ma'nnaviy-ruhiy mukammallik va aqliy balog'at xususida so'z aytish mumkin emas. Bulardan qaysi biridir yetishmasa, hammomga kirib noplak chiqmoqday gap bo'ladi. «Olam uyi»da yashash uning fuqarosiga aylanishdir. Mir Alisher Navoiy insonning jahon farzandi maqeiga ko'tarilishini xohlaganlar. Xuddi shu mavqeni esa kamolotning olyi choqqisi deb belgilaganlar.

*Ibrohim HAQQULning  
«Kamol et kasbkim»  
kitobidan olindi*

## O'QIB TURSA NAVOIYNI bu bolalar kam bo'lmaydi

Turkiy xalqlar adabiyotining sardori, buyuk mutafakkir, o'rnas asarlari juda ko'plab jahon xalqlari tillariga tarjima qilingan Alisher Navoiy bobomizdan katta adabiy meros qolgan.

Oradan besh asrdan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa-da, Navoiyning besh asardan iborat «Xamsa»si, «Xazoyin ul-maoni» («Ma'nalor xazinası»), «Muhokamat-ul lug'atayn» («Ikki til muhokaması») kabi asarlari, ajoyib g'azal, she'rleri dunyo xalqlari tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda. Daho bobomiz ijodida ta'lim, tarbiya, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat, ilmnning qadri, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish kabi mavzular muhim o'rinn tutadi. Siz yoshlar Navoiy bobomizning:

*Bor emish avval zamonda bir kishi,  
Doimo yolg'onchilik qilgan ishi»*

deb boshlanadigan she'rini yaxshi bilasiz. She'rda yolg'on so'zlash yomon odat ekanligi, yolg'on gapirgan kishining boshiga kulfat tushganligi (ya'ni, uyi yonib ketganligi) haqida juda ta'sirchan yozilgan.

Alisher Navoiyning har bir she'reti, g'azali, nasriy asarlaridagi har bir qahramon faqat insoniylik, Vatanni sevish, yon-atrofdagilar bilan ahil-inoq bo'lish, imkonli boricha odam-

largaya yaxshilik qilish va ezgulikka undaydi. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonida mardlik, do'stlik, o'z so'ziga sobit turish, mehr, vafoga sodiqlik kabi xislatlar tarannum etilsa, «Layli va Majnun»da ikki yoshning chin do'stligi, bir-biriga sadoqati, mehr-oqibati, o'zaro hurmati g'oyat go'zal misralarda o'zfodasini topgan.

Siz – aziz o'quvchilarning ham Alisher Navoiy bobomizning she'r, g'azal, asarlari o'qish eng sevimli mashg'ulotingiz ekanligiga ishonamiz. Bu juda yaxshi. Chunki bobomizning yozgan har bir satrida chuqur ma'no va mazmun, donishmandlik xislatlari bo'lib, ular o'quvchini doimo ezgulik va yaxshilikka undaydi. Alisher Navoiy asarlarini har kuni mutolaa qilish koni foysa ekanligini aslo unutmang. Iste'dodli shoir Muhammadjon Rahmon she'rda yozganidek:

*«Qilib dunyo da'veyini,  
Bilgani soz «hav ar-yu»ni...  
O'qib tursa Navoiyni,  
Bu bolalar kam bo'lmaydi!»*

*Yusufjon HAMDAMOV,  
filologiya fanlari nomzodi*



## UMRNI ZOYE ETMA

*Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning asarlaridagi umumbashariy g'oyalar va o'gitlarni o'qir ekanmiz, ma'naviy olamimiz boyib, komillik sari intilamiz.*

*Umrni zoye etma, mehnat qil,  
Mehnatni saodating kaliti bil.*

Ushbu misralar orqali bobomiz o'zlaridagi shijoatni biz yoshlarda bo'lishini orzu qilgan. Adabiyot fani ustozimiz aytganidek, buyuk ajdodimizning asarlarida asosan, ezguilikka intiluvchi insonlar, ularning olyi maqsad yo'llidiagi mashaqqati mehnatlari qalamga olingan.

Buyuk mutafakkir nomi bilan ataladigan Navoiy shahridagi saylgohga tez-tez oilaviy sayrga chiqamiz. Bog'ning o'tasida salobat to'kib turgan Alisher Navoiy haykali biz yoshlarni buyuk ishlarga chorlayotgandek, go'yo.

Dadajonim aytganlaridek, so'z shu qadar quadratlik, undan ehtiyyotkorlik bilan foydalinish zarur. Bu haqiqatni Hazrat Navoiy asarlarini o'qiganda, yanada chuqr anglayman. Uning nodir durdonlari bizlarni komillikka intilishga, maktabda a'lo baholarga o'qishga undaydi. Shu sababli, uyda bobojonim bilan doimo «Xamsa»xonlik qilamiz.

Keling do'stlar, Alisher Navoiy asarlarini chuqr o'rganib, kamolotga intilaylik!

*Gulzira OBLOQULOVA,  
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi  
35-umumta'l'm maktabining 8-sinf o'quvchisi*

## AJOYIB TADBIR BO'LDI



*Bilim maskanimizda  
Birinchi Prezidentimiz  
Islam Karimovning 80  
yilligi keng nishonlandi.*

Maktabning O'zbekiston tarixi o'qituvchisi Umid Pirmatova va Yekaterina Xarina boschiligidagi o'tkazilgan tantanali tadbirda qatnashgan o'quvchilar bobomizga atab she'r va qo'shiqlar ijro etishdi.

*Go'zal PO'LATOVA,  
poytaxtimizning Yashnobod  
tumanidagi 52-umumta'l'm  
maktabining musiqa  
fani o'qituvchisi*

*Bu gulshan ichraki,  
yo'qdur baqo guliga sabot,  
Ajab saodat erur,  
chiqsa yaxshilik bila ot.*

## AJDODLAR SIYRATI

*Buyuk ajdodimiz Boburning hayoti katta  
sinov va mashaqqatlardan iborat bo'lgan. Shu  
bois, bobomizga atab yozilgan har bir satrda  
ajdodlarimizga xos shijoat, buniyodkorlik,  
kalqparvarlik, kuchli iroda, shoirlilik nafasi ufurib  
turadi.*

Uning ijodini o'rganganda, nafis she'rleridan ozuqa olamiz. Meni, ayniqsa, Boburning Navoiy bobomizga bo'lgan cheksiz hurmati hayratga soladi. Bu haqda Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanida o'qiganman:

«...Bobur Firdavsiydan, Sa'diydan minglab baytlar yod bilardi. Hozir u kitoblar orasidan «Xamsa»ni olar ekan, uzoq Hirotda yashayotgan Alisher Navoiyni xayol ko'zi bilan ko'rib turgandek bo'ldi. Hirotda ta'l'm olib kelgan andijonlik me'mor Mulla Fazliddin yosh Boburga Alisher Navoiy haqida juda ko'p ajoyib hikoyalar aytib bergen. Me'mor Hirotdan Alisher Navoiyning Behzod chizgan rasmidan yaxshi bir nusxa ko'chirib kelgandi. Bobur ham Navoiyiga ixlosmand ekanligini ko'rib, bu suratni unga sovg'a qilgandi. Bobur bu suratni ko'z qorachig'idek ehtiyyotlar, «Farhod va Shirin» dostoni qatida saqlardi».

Bularni o'qir ekanman, Bobur Navoiy asarlarini, hatto uning bir so'zini, yozgan maktubini qanchalar qadrlashiga guvoh bo'laman. U g'azal mulkining sultonidan ma'nana ozuqa olib, ruhan, qalban yaqinlikni his qilib, ul zotni o'ziga ustoz bilgan ekan.

*Sevara BAHODIROVA,  
Jizzax akademik litseyi o'quvchisi*

## ISTIQLOL ME'MORI

*Yaqinda maktabimizda «Qalblarda mangu yashaysiz» mavzusida «Ochiq eshiklar kuni» o'tkazildi.*



Birinchi Prezidentimiz hayot yo'lli misolda chuqr anglab yetdilar. Sinflardagi «Xotirangiz mangu qalblarda», «Siz yurgan yo'llardan borgaymiz», «Siz bizning bog'bonimiz», «Istiqlol quyoshimiz» deb nomlangan kitob burchaklaridan esa yig'ilganlar Islom Karimov haqidagi qimmatli ma'lumotlarni olishdi.

*Abrorjon QUDRATOV,*

*Namangan shahridagi 35-umumta'l'm maktabining inglez tili o'qituvchisi*



Tadbirga Namangan viloyat xalq ta'limi boshqarmasi mas'ul xodimi Xayrullo Abdurahmonov, Namangan shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri Dilbar Hoshimova, shahardagi barcha maktabalarning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rincbosarlar, viloyatdagi yozuvchi va shoirlar, viloyat XTB muassisligidagi «Bolalar dunyosi» va «Murabbii» gazetalarining muharrirlari Mardon Esonboyev hamda Dilbar Haydarova va o'quvchilar taklif etildi. O'tkazilgan «Ochiq dars»larda Islom Karimovning hayoti, uning mustaqillikka qo'yan tamal toshi, o'zbek xalqiga bo'lgan humrat-e'tibori, g'amxo'rliqi, o'tgan 25 yil davomidagi buyuk ishlari haqidagi videolavhalar namoyish etildi. O'quvchilardan A. Majnunov, B. Ahmadov, A. Avazxonov, O. Abdusamadov, O. Mo'ysinxonova istiqlol me'mori to'g'risida she'rlar, monologlar ijro etishdi. Dars davomida tinglovchilar Vatan muqaddasligini, mustaqillik ulug' ne'matligini, xalq birligi va ahillieng yengilmas kuch ekanligini, tarixsiz kelajak yo'qilgini

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,  
qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

**Kitob -  
sodiq do'st. Kitob - oftab. Kitob - ko'ngil chirog'i  
degan hikmatli so'zlarini ko'p  
eshitamiz.**

In-  
soni-  
yatning  
buyuk kashfi-  
yotlar qilishi-yu, yuksak mar-  
ralarni zabt etishida kitobning  
o'rni beqiyos ekanligini ham  
yaxshi bilamiz.

Dunyo yaralibdiki, ilm-fan,  
ma'rifat va ma'naviyat, insonning  
jamiki fazilatlari kitobdan olingan  
ziyoning hosilasidir.


Oila bolajonlarni kitobga mu-  
habbat qo'yishi uchun bu xayri ishni  
ularning go'daklik davridanog  
boshlash kerak. Ilk tasav-  
vur rang-tasvirli kitoblardan  
boshlanadi. Ayniqsa, uuda  
bolalarga buvi-yu bobolar  
ertak va matallar ayti bera,.  
nur ustiga no'r.

Bolalar 2 yoshidan boshlab  
rang-tasvirli kitoblarga qiziqadi.  
3-4 yoshda ular kitobni  
ajrata oladi. Shu yoshdagagi  
kichkitoylarni kitob do'kon-  
lariiga olib borganmis? Ular  
o'ziga yoqqan badiiy, bezakli,  
qahramonlari yaqqol aks etgan  
asarni tanlaydi. Bo'yash lozim  
bo'lgan jurnallarga qiziqadi.

5-7 yoshli bolalar multfilm  
qahramonlari va turli mas-  
nalar rasmlari tushirilgan kitob,  
jurnallarni yaxshi ko'radi.

Eng ajablanarli tomonni  
shundaki, bugun aksariyat

## KELING, KITO'B O'QIYMIZ!



### IBRATLI IBORALAR

Kitob - quyosh... Kitob - osmon... Kitob - ummon... Kitob - nurli kelajak...

\* \* \*

Bolalarning maktab davrida o'tacha 100 ta badiiy adabiyot o'qishga vaqt yetadi. Bu kitoblar bilan mo'jazgina kutubxonada barpo bo'ladi. Tuganmas sirli sandiq javohirlarga to'ladi.

\* \* \*

Bolalarni sevimli - «G'uncha», «Gulxan» va «Tong yulduzi» nashrlariga oshno qiling. Ular o'quvchilarni tarbiyalashda ko'makchidir.

bolalar xorij multfilmlari qah-  
ramonlariga taqlid qilishni  
yoqtiradi. Bu bolalarning tar-  
biyasi buzilishiga olib borishi  
mumkin.

Farzandlarni ko'proq o'zbek xalq ertaklari, milliy qahramonlar va multfilmlarni ko'rishga undash va eng mu-  
himi, kitob o'qishga chorlash kerak. Uya mo'jazgina kutub-  
xonada yaratib bersangiz, bolada mutolaaga qiziqish hosil bo'ladi. Agar unga internet o'yinlari yoki  
qol' telefonli sovg'a qilsangiz, badiyi  
adabiyotni ikkinchi o'ringa  
qo'yadi. Loaqlar, bir oyda bir  
marta kitob do'konlariga olib  
borish va qiziqarli asarlar  
sovg'a qilish juda foydalid.

Bolalar kitobdagagi ijobji  
qahramonlardan o'nak ola-  
di. Farzandlarimiz «Men -  
yengilmas sarkarda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi  
avlodiman. Alpomishdek kuchim bor, Farhod singari  
mehnatkhush ja suruman», deb g'ururlanishi kerak.

Qizlarimiz «Men To'maris, Zebunniso, Zulfiyalar avlodiman. Men o'zbekman. O'zbek urf-odatlarini, buyuk o'tmishini qadrilayman va ke-  
lajakdagagi yuksak marralarni zabt etaman», deb ulg'ayishi lozim.

Mansur YUNUS

## EZGULIKKA HAMROHMIZ

Inson yaratgan eng buyuk mo'jizalardan biri  
shubhasiz, kitobdir. Darhaqiqat, kitob - mo'jiza,  
unga do'st tutingan inson doimo yaxshilikka  
hamroh bo'ladi.



Buxoro shahridagi 35-umumta'lum maktabida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, shoirlar bilan uchrashuvlar hamda tanlovlardan yushtirish an'anaga aylangan. Shuningdek, haftaing har shanbasida sinflar kesimida Buxoro shahridagi eng sevimi maskanlardan biri bo'lgan «Buxoro kitob olami»ga sayohatlar tashkillashtiriladi.

Talim maskanining Yoshlar ittifoqi yetakchisi Nigora Hamdamova, kutubxonachi Matluba To'xtayeva hamda maktab sardorlari tashhabusi bilan bilim maskanida «Zukko kitobxon» intellektual o'yini tashkil qilingan.

O'quvchilarning yetakchi opasi tomonidan qishki ta'il davridan unumli foydalanishlari maqsadida P. Koeloning «Alkimogar» asarini mutolaa qilish topshirilgan edi. Shartga ko'ra, 7-sinflar or'tasida o'tkazilgan «Zukko kitobxon» intellektual o'yinida savollar ayan ushbu kitob yuzasidan berildi va bu o'yinda 7-«D» sinif o'quvchilaridan tashkil topgan «Adolat» jamoasi g'oliblikni qo'ga kiritdi. Aminshoh Abdurasulov, Asal Ravshanova, Malika Ismoilova, Azizbek Amirjonov, Parvina Sa'dullayeva, Dilfuza Rahmuddinovalar singari faol ishtiroychilar «Kitob olami»ning eng qiziqarli kitoblari bilan taqdirlandi.

Nurbek QIDIRALIYEV

## G'OLIBLARNI XUDOYBERDI BOBO TABRIKLADI

### Zalga

yig'ilgan o'quvchilar hayajon  
bilan tadbir boshlanishini kutishmoqda. Boisi,  
bugun ular qo'lga kiritgan yutuqlar e'lon qilinadi.  
Qolaversa, hozir davrarga bolalarning sevimli yozuv-  
chisi Xudoyberdi To'xtaboyev tashrif buyuradi. Ha,  
anglaganingizday, bugun sizga ajoyib bir tadbir  
haqida so'zlab bermoqchimiz.

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi ta'lum maskanlardan saralangan o'quvchilar 169-umumta'lum maktabida jam bo'lishdi. Ular bugun «Yanvar - tarix va huquq fanlari oyligi» doirasida o'z bilimlarni namoyish etishmoqchi.

Oylik davomida tumanidagi barcha maktablar da 80 dan ziyod ochiq darslar tashkillashtirildi. Shuningdek, o'quvchilar bilimini sinovdan o'tkazish maqsadida «Tarixchi yoshlar» tanlovining hududiy va tuman bosqichlari o'tkazildi. Bugungi festivalda ana shu bellashuv g'oliblarini Xudoyberdi boba taqdirlaydigan bo'ldi.

Tadbir davomida 314-umumta'lum maktabining bilimdonlari tomonidan sahnalashtirilgan Birinchi Prezidentimizning o'quvchilik yillariga oid sahna ko'rinishi barchani ta'sirlantirdi. Ma'lum bo'lischicha, Islom boba juda tirishqoq va a'lochi o'quvchi bo'lgan ekanlar. Mavzuning davomini

esa o'z xotiralarini so'zlab berish uchun so'z olgan sevimli yozuvchimizdan tingladik. Xudoyberdi boba: «Har safar Islom Karimov bilan uchrashganimda, ular bolalarga oid masalalarni jon quoqlari bilan tinglardilar», deya ta'kidladi.

Son 41-umumta'lum maktabi o'quvchilarining iste'doddli o'g'il bolalari doira-yu nog'orani baland ovozda chalib, tanlov g'oliblarini taqdirlash fursati yetganidan darak berishdi. Shunda tuman ijtimoiy fanlar uslubchisi Hasan Abdurahmonov oylik doirasida o'tkazilgan ko'rik-tanlov o'quvchilarida katta ishtiyoq va intiluvchanlikni shakllantirganini ta'kidladi. Natijalarga ko'ra, 41-, 169-, 254-, 314-umumta'lum maktablari jamoalarini muvaffaqiyati ishtiroy etishgani ma'lum bo'ldi. Shuningdek, yaqinda umumta'lum maktablari o'quvchilar o'rjasida o'tkazilgan fan olimpiadasining tuman bosqichida muvaffaqiyatga erishgan o'quvchilar faxriy yoriqlar bilan taqdirlandi. Fur-satdan foydalanib, 262-umumta'lum maktabining 10-sinf o'quvchisi Dilbar Hikmatullayevanining taassurotlari bilan qiziqdik:

- Ba'zi o'quvchilarga tarix fani biroz zerikarliday tululadi. Ammo men bu fanga juda qiziqaman.

O'tmishdagagi voqealar, ota-bobolarimizning hayoti ertag-u afsonalarga o'xshaydi va insonni ta'sirlantirmay qo'ymaydi. Agar biz har bir mavzuni



puxta o'rganib yodda saqlasak, tariximizni chuqur o'rgansak, kelajak sari dadil qadam tashlaysiz. Tengdoshingizning so'zlar xulosa o'mida bo'ldi.

Sayyora QODIROVA

# ALISHER NAVOI



Our very famous poet Alisher Navoi was born in Heart, on February 9, 1441. Alisher Navoi is a great Uzbek poet a representative of the great Uzbek literature. His real name was Nizomiddin Mir Alisher. But he wrote his poems under the pen-name of Navoi and Foni. Navoi is in his poems which written in the old Uzbek language, Foni is in his poems which were written in Persian language. His work is more than verses his very famous poem is «Quintuple» (Khamsa). Khamsa includes five poems. They were «Astonishment of Nice People», (Hayrat ul-Abror), «Farhad and Shirin», «Layly and Majnun», «Seven Planets» (Sab'ayi Sayyor), «The wall of Iskandar» (Saddi Iskandari). Navoi was the first poet who created completed Khamsa in Turkish language. We should be proud of forefathers such famous people.

Maqsuda ORIPOVA,  
the English teacher, school № 4, Bukhara region

## WINTER SEASON

This is the season,  
When mornings are dark.  
And birds do not sing,  
In the forests and parks.

Maftuna ABDUQAYUMOVA



## TWO FROGS (Ikki qurbaqa)

A group of frogs were traveling through the woods, and two of them fell into a deep pit. When the other frogs saw how deep the pit was, they told the two frogs that they were as good as dead. The two frogs ignored the comments and tried to jump up out of the pit with all their might. The other frogs kept telling them to stop, that they were as good as dead. Finally, one of the frogs took heed to what the other frogs were saying and gave up. He fell down and died. The other frog continued to jump as hard as he could. Once again, the crowd of frogs yelled at him to stop the pain and just die. He jumped even harder and finally made it out. When he got out, the other frogs said «Did you not hear us?» the frog explained to them that he was deaf. He thought they were encouraging him the entire time.

not hear us?» the frog explained to them that he was deaf. He thought they were encouraging him the entire time.

## Dictionary

Frog – Qurbaqa  
Deep – Chuqur  
Pit – Chuqurlik  
To take heed – Kimningdir maslahatiga katta e'tibor qaratmoq  
Explain – Izohlamoq  
Crowd – Olomon, omma  
Deaf – Kar, qulog'i og'ir

From internet information Ma'mura G'ULOMOVA

Good the speech that is graceful and distinct,  
Excellent that which is truthful and succinct.


Chin so'z mo'tabar,  
Yaxshi so'z muxtasar.

ALISHER NAVOI

## CHOOSE THE SUITABLE ANSWER

(Mos javobni tanlang)

Sardor has a new/old teacher. He feels/felt nervous. On the first day, the new teacher is/become nice/good. Sardor feels happy/sad. His mother tells him to respect/protect his teacher. That means/it seems showing your teacher/dean that you listen and follow directions. We respect our teachers because they/they are teach us and help us. Sardor feels happy in school/at school. He wants/desires to respect her/his teacher.



## Full fill the gaps (Nuqtalar o'rnini to'ldiring)

Going, honey, turtle, roaring,  
dolls, peacocks, come, table.

1. The red rose is on the **table**.
2. I can see a little... in the sea.
3. Girls love playing with ...
4. Komila is ... with her bag.




5. A big lion is ... in the cage.
6. The bear loves ...
7. Look at the ...on the tree.
8. Jamshid will ... late.



Dinora ABDULLAJONOVA

## I like vegetables I like vegetables

How many vegetables can you guess?



Yorqinoy TOSHPO'LATOVA,  
the pupil of school № 7, in Zomin district, Jizzakh region

Naf'ing agar xalqqa beshakdurur,  
Bilki, bu naf' o'zungga ko'prakdurur.

Alisher NAVOIY

## MEHR BERDINGIZ BIZGA



Shu ona Vatan uchun,  
Qancha yonib-kuylidngiz.  
O'zbekning bolasini,  
Bolangizdek suydingiz.

Qilgan ezgu amallar,  
Yurt qalbida yashaydi.  
Sizni sevgan xalqingiz,  
Olg'a qadam tashlaydi.

Aziz xotirangizni,  
Yod etamiz, bobojon.  
Mehr berdingiz bizga,  
Hamda bir olam imkon.

Aziz Islom bobojon,  
Ruhingiz etaylik shod.  
Obod Vatan qo'ynda,  
Mangu yashang umrbd.

Sevinchxon SAHOBIDDINOVA,  
Farg'ona viloyati, Besharq tumanidagi 14-umumta'l'm  
mektebinining 8-«A» sinf o'quvchisi

## TENGI YO'Q DUNYO



Onajonim – oftobim,  
Mehri bir daryo.  
Otajonim – posbonim,  
So'zlar duyu.  
  
Onamning ko'zlaridan,  
Nur yog'ilar hamisha.  
Otamning so'zlaridan,  
Shahd bilinar hamisha.  
  
Agar dunyo aylanib,  
Bo'lsa charxpalak.  
Ota-onam oldida,  
Misli bir ko'lma.

Otam erur quyoshim,  
Onamdir oyim.  
Ikkovlari yonimda,  
Mening dil soyim!

Ma'buda NIZOMOVA,  
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi  
17-DIUM 7-sinf o'quvchisi

## ONAJONIM – OSMONIM

Boshimda osmonim,  
Mehribon dilda jonim.  
Sizni yaxshi ko'raman,  
Bor mehrimni beraman.

Sizni tabasssumingiz,  
Men uchun ulkan sharaf.  
Sizga bo'lgan mehrimga,  
Hech narsa kelmas taraf.

Berdiyor QARSHIBOYEV,  
Jizzax shahridagi «Umid» litseyining  
8-«J» sinf o'quvchisi

## «NABIRAMGA MAKUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan  
sonlarda)

Nabiraginam, sen maktabdali-  
gingda bir kitobdan ajoyib voqeani  
o'qib, mazza qilib, yayrab-yayrab  
kuldim, desang. Shu paytgacha  
men bolajonlarimizni biss kattalar  
tarbiyalaymiz, deb yurar ekanman.  
Vaqti kelganda, bolalar ham kat-  
talmari shundoq tarbiyalab qo'yar  
ekan-ki... Tarbiyalaganda ham  
qoyilmaqom. Eshitgin-a...

Menga o'xshagan bir otaxon  
nabirasasi bilan katta ko'chaning  
chetidagi yo'lakdan ketib borishay-  
otgan ekan. «Uff... deb ko'ngli  
behuzur bo'lib burnini berkitibdi  
nabirasasi. Bola-da, hidni yaxshi  
biladi. Buvasi atrofqa qarasa, yo'l  
chetida mashina urib ketgan  
mushuk jasadi yotgan ekan.  
Chirib, kun issig'ida yon-at-  
rofning havosini bulg'ayapti.

«Ahvol shu-da, bolam, bu  
yerdan kechga dovr minglab odam  
o'tadi, bittasi shu o'laksani nari-beriga  
olib, borib ko'mib qo'yay demaydi,  
kasal tarqatib yotgani bilan ishlari  
yo'q».

Bobo shunday deb o'zicha boshqa-  
larni yozg'irib, haligi joydan nabirasi  
bilan tezlab o'tib ketishibdi.  
Shunda nabirasiga tushma-  
gur bobosiga nima  
depdi degin:

o'zi qilsa ham bo'lardi-ku! Bobosi  
nabirasiga «yarq» etib qarab, xatosini  
tushunib qopti. «Ko'mamizmi,  
bolam?» so'rabdi bobo nabirasidan.

«Ko'mamiz, bobojon!»

Shunday qilib, bobo va  
nabira haligi narsani bartaraf  
qilib, yo'llarida davom  
etibdilar. Atrof havos  
tozalanibdi.

Shunaqa, ba'zan  
biz kattalar u deymiz,  
bu deymiz-u, o'zimiz  
ham qunt qilay de-  
maymiz. Bizni ku-  
zatib turuvchilarimiz  
iz borigini esdan  
chiqarib qo'yamiz.  
Men bolakayning  
halitdan ziyrak-  
ligiga tan  
berdim. U  
ulg'ayganda  
ham bunday  
noxush hollarga

befarg bo'lmaydi. Olamni musaffo  
ko'radigan pokiza insonlardan bo'ladi.  
Umri uzoq bo'lsin!

(Davomi bor)

## ZIYRAK BOLA

«Bobojon, mu-  
shukni o'ligini kim ko'madi?» Ana  
savol-u mana savoll! Axir bobosi  
ham o'sha o'tib borayotgan mingta  
odamning bittasi edi-ku. O'sha ishni

befarg bo'lmaydi. Olamni musaffo  
ko'radigan pokiza insonlardan bo'ladi.  
Umri uzoq bo'lsin!

## Tong yulduzi

O'roq SAID,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

## QUYON OVIDA

Karim, Samad, Rashidov,  
Olishib qo'lga tayoq.  
Quyon ovga chiqishdi,  
Oppoq libosda har yoq.

Ular o'tdi soy, qirdan,  
Olapar ham ergashar.  
Archalar harir kiygan,  
Qor naq belga tirmashar.

Keza-keza, nihoyat,  
Topishdi quyon izin.  
Hammalari tinglashdi,  
Shunda Karimboy so'zin:

– Og'aynilar, qaranglar,  
Quyon archa tagida,  
Izi chiqib ketmagan,  
To'rttal tomonidan!

Uchalamiz uch joydan,  
Tezda o'rab olamiz.  
Quyon qayerdan chiqsa,  
Naq beliga solamiz.

Uchalasi uch joydan,  
Tezda o'rab olishdi.  
Chiqavermagach quyon,  
Qordan olib otishdi.

Shunda quyon irg'idi,  
Qarang Rashid tomonga.  
Olapar ham otildi,  
Jon-jahd bilan quyonga!

Uchalasi baravar,  
«Ur, hat!» deb otdi tayoq.  
Olapar vang'lladi,  
To'polon bo'ldi shu choq!

Esin yig'ib qarashsa,  
Kuchuk cho'loq yetibdi.  
Quyon esa qutilib,  
Allaqayga ochibdi.

## O'XSHAR SAXIY QUYOSHGA

(Igna qo'shig'i)



N. SHAVKATOV chiqishg'asmi

Meni mitti demanglar,  
Hunarlarim osmoncha.  
Ko'rp'a qavib, to'n tikib,  
Kiyintiraman ancha.

Tugmang uzilib tushsa,  
Ko'kraging qolar ochiq.  
Oyog'ing paypoq teshsa,  
Yurakka kirar sanchiq...

Barchasiga men tayyor,  
Aylantirib tikaman.  
Hunarmand – kashtachining,  
Qo'lida gul ekaman!..

Shu sababli momolar,  
Meni qadayıd bosha.  
Hurmatalim beqiyos,  
O'xshar saxiy quyoshga!

«...Sizlar qo'lg'a kiritgan mislsiz bu g'alaba butun xalqimizga cheksiz quvondi bag'ishlab, O'zbekiston yoshlarining qanday buyuk ishlarga qodir ekanini yana bir bor ko'satdi. Bu ulkan zafar, hech shubhasiz, mamlakatimizdagi millionlab yoshlarni mardlik va matonat, Vatan-ga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga ulkan hissa qo'shadi.

El-yurtimiz sizlar kabi mard, jasur, fidoyi o'g'loni bilan, yur-timizning haqiqiy qahramonlari bilan faxrlanadi».

Prezidentimizning Xitoya 23 yosh-gacha bo'lgan futbolchilar o'tasida bo'lib o'tgan Osiyo championatida g'o-liblikni qo'lg'a kiritgan yosh charmto'p ustalarimizga yo'llagan tabridigagi bu so'zlarni o'qirkansiz, qalbingiz cheksiz

riga kim aslida kim ekanini yana bir bor ko'satib qo'ysi.

Ayniqsa, final bahsini o'zbek futboli muxlisilari hali uzoq vaqt eslab yur-salar, ajab emas. Vyetnamga qarshi o'tgan hal qiluvchi uchrashuvda futbol-

chilarimiz chinakam matonat ko'rsatishdi. Noqulay ob-havo sharoitida o'tgan o'yinda Ravshan Haydarov shogird-lari o'zlarining bor mahorat-larini namoyish etib, yakunda raqiblari ustidan 2:1 hisobida ustun keldi va Osiyo championi de-gan sharafi

nomga sazovor bo'idi.

O'zbek o'g'loniiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovg'asi – «Malibu» avtomobili tantanali tarzda topshirildi. Ushbu yuksak e'tibor barcha yosh toifasidagi futbolchilarimizni yuksak marralar, ulkan g'alabalar sari undashiga ishonamiz.

Sadullo TURSINOV

g'urur-iftixorga to'ladi. O'zbek futbolini kelajakda kalta g'alabalar kutayotganini ich-ichingizdan his qilasiz.

Ha, O'zbekiston olimpiya terma jamoasining qit'a championatida g'o-liblikni qo'lg'a kiritishi yurdoshlarimizga olam-olam quvonch baxsh etdi. Yosh futbolchilarimiz o'yindan o'yinga o'z mahoratlarini toplib, barcha raqibla-

nomga sazovor bo'idi. O'zbek o'g'loniiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovg'asi – «Malibu» avtomobili tantanali tarzda topshirildi. Ushbu yuksak e'tibor barcha yosh toifasidagi futbolchilarimizni yuksak marralar, ulkan g'alabalar sari undashiga ishonamiz.

**QORAQALPOQ DORBOZLARI**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumanidagi 54-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchilari Hasan va Husan To'liyevlarni nafaqat maktaboshlari, balki butun mamlakatda yaxshi tanishadi. Ular qoraqalpog'istonlik dorbozlar orasida eng yoshi kichigi bo'lib, «Sport» telekanali orqali beriladigan «Rekord.uz» shousining g'oliblaridir.*

– Hasan-Husanlarning iste'dodi bilan biz ustozlar faxlanamiz, – deydi ilm maskanining ma'naviy-ma'rifiy ishlash bo'yicha direktor o'rinosari Shirin Sultonova. – Ta'lim muassasamizda ular singari iste'dodli o'quvchilar juda ko'p.


o'quvchi qatnaydi.

Bilim dargohida maktab, oila, mahalla hamkorligida ko'pgina tadbirlar o'tkazilmoqda. Profilaktika noziri bilan har hafta diniy ekstremizm, jinoyatchilik va odam savdosiga qarshi kurash mavzusida suhbatlar, «Davomat», «Tungi reyd» singari tadbirlar tashkilashtirilmoqda.

Bu kabi egzu ishlarga maktabdagisi fidoyi o'qituvchilar bosh. Shuningdek, Fotima Jobiyeva, Qurol Qurbonov, Baxtiyor Tojimurodov, Ayman Adilova, Sveta Sobirova, Bozorgul Kenjaboyeva kabi ustozlar o'qitishning innovatsion usulidan keng foydalinishadi.

Aziz o'quvchilar, maqolani o'qib, qoraqalpoq yoshlari erishayotgan muvaffaqiyatlarga havasingiz ortgan bo'lsa kerak. Unda siz ham qo'lingizga qog'oz-qalam olib, o'quv maskanining haqida bizga yozib yuboring.

Ozoda TURSUNBOYEEVA



Maktabda 17 ta fan, 4 ta sport to'garaklari o'quvchilar bilan gavjum. Sportning shaxmat-shashka, voleybol, futbol, tennis to'garaklariga 105 nafar

qog'oz-qalam olib, o'quv maskanining haqida bizga yozib yuboring.

Ma'naviy sog'lam bo'lish uchun jismonan bardam bo'lish ham lozim.

L. N. TOLSTOY

## BESHARIQLIK SHAXMATCHI

Farg'onada viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabida iqtidorli o'quvchilar juda ko'p. Kuzatib borayotgan bo'lsangiz, bu o'quvchilarning ijod namunalarini gazetamiz sahifalarida ham chop etib boryapmiz. Bugun biz ushbu ta'lim muassasasining yana bir yosh iste'dodi bilan sizlarni tanishtirmoqchimiz.

Qilichbek

Naziraliyev

4-«V» sinifa o'qiydi.

U shaxmat

o'ynashni

yaxshi ko'radi.

Sportga

ha vasni

buvijonisi

Munavvar

Jo'rabyeva

uyg'otgan.

Dastlab u

shaxmatni qiziqish sifatida o'ynagan bo'lsa,

hozirda sport to'gar-

agida astoydil shug'ullanmoqda.

U maktab va tumanlararo o'tkazib

kelinadigan musobaqlarda faxrli o'rinnlari qo'lg'a kiritib kelmoqda.

Jumladan, 2017-yilning dekabr oyida o'quvchi-yoshlar o'tasida

o'tkazilgan viloyat birinchiligidagi 1-o'rinni egalladi.

– Shaxmat-shashka o'ynash jon-u dilim, – deydi Qilichbek.

– Ustozlarim Sirojiddin G'oyibnazarov hamda Mashrabjon Ah-

medovlardan turli usullarni qunt bilan o'rganyapman.

Shaxmat

xotirani mustahkamlaydi,

g'olib bo'lishga undaydi.

Darsdan so'ng,

foydali mashg'ulot bilan shug'ullanish kishiga zavq bag'ishlaydi.

Buvijonini ham bi nabiralar

«Bekor yurmang, doim vaqtning

qadriga yetinglar», deya uqtiradilar.

Izlanuvchan,

qat'iyatlari,

maqsad sari dadil qadam tashlayotgan

Qilichbekning yutuqlari o'zini ham,

tengdoshlarini ham yangi mar-

ralar sari chorlashi, shubhasiz.

Nodira NAZAROVA

## OLTIN MEDALLI

### SHAHBOZBEK

*Marg'ilon shahridagi 2-bolalar va o'smirlar sport maktabida sportning 14 turi bo'yicha to'garaklar tashkil etilgan. Bu maskandagi qo'l jangi to'garagi a'zosi Shahbozbek Xayrullaxo'jayev o'zing tirishqoqligi, faolligi bilan tengdoshlariga o'rnatko'lib, yurtimizga oltin medal bilan qaytdi.*

– 2007-yildan qo'l jangi to'garagiga qatnayotgan Shahbozbek uchun mazkur xalqaro bellashuv o'z mahoratini namoyish etish uchun katta imkoniyat bo'ldi, – deydi maktab direktori, qo'l jangi bo'yicha viloyat terma jamoasi bosh murabbiyi Kamoliddin Akbarov.

Muhammadjon MAHMUDOV,  
Marg'ilon shahri

# RANGLARDAN RANG OLADI OLAM

Azaldan inson o'z iqtidorini namoyish qilish uchun talpinib yashagan. Kimdir qo'llariga qog'oz-qalam olib she'r-u hikoyalar bitsa, yana birov rangli bo'yqlar orqali olamni tasvirlashga urinadi. Chizganlarini, bitganlarini tengdoshlariga, o'rtoqlariga ilinadi. Bugun sizlarga ana shunday yosh iqtidor sohiblarining ijod namunalarini havola qilmoqdamiz. Balki siz ham ular singari o'z iste'dodingizni namoyish qilmoqchidirsiz? Unda, marhamat, gazetangiz bunda sizga yaqindan yordam beradi.



«Manzara»

Mohichehraxon  
IBROHIMJONOVA,  
Farg'on'a viloyati,  
Qo'qon shahridagi  
18-umumta'l'm  
mabitining 8-«V» sinf  
o'quvchisi



«Qish zavqi»

Barchinoy O'RINOVA,  
poftaxtimizning  
Shayxontohur tumanidagi  
254-umumta'l'm mabitining  
7-«D» sinf o'quvchisi



«Kuchukcha»

Fazililloh UMARALIYEV,  
Andijon viloyati, Shahrixon  
tumanidagi 33-umumta'l'm  
mabitining 6-sinf o'quvchisi

«Mehnatsevar qiz»

Mushtariybonu RAHMONOVA,  
poftaxtimizning Shayxontohur  
tumanidagi 299-umumta'l'm  
mabitining 4-«G» sinf  
o'quvchisi



## BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

O	O	O	O	O	O	O
Tinish belgi	Ot «poy-abzall»	Qish trans- porti	Xona- don	It zoti		O
O		*	*	*		O
Alan- ga, otash	Suv yo'li	Pilla- poya	Bahor guli	Hur, erkin		O
O	**			**		O
Optik asbob	Orzu, istak	Sharh, tushun- tirish	To'qish ashyosi	Ser- soyda daraxt		O
O		*	*	*		O
Poy- taxti- Lima	Ozuqa ekini	Muno- zara	Mebel	Torli soz		O
O	O	O	O	O	O	O

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



«Ona tabiat jilosi»

Diyorbek NE'MATOV,  
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi  
13-DIUMning 7-«D» sinf o'quvchisi



### Muassis:

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan  
otgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Qahramon QURONBOYEV,  
Dilshod KENJAYEV,  
Alisher S'ADULLAYEV,  
Laziz TANGRIYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV  
(Bosh muharrir o'rinsobasi),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir  
Jamoliddin ABDULLAYEV  
Rassom  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV  
Fotomuxbir  
Zubayda  
HAMIDULLAYEVA

«O'zbekiston» NMU  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzilimiz va bosmaxona  
manzili:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz  
Adadi - 74000  
Buyurtma - V 1026

Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytariladi.  
Shakdi A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba  
ba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqt - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel. /faks:  
(99871) 244-63-08